

**BO‘LAJAK GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARINING
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI**

Mahmudova Ch.I.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Geografiya kafedrasi o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: kompetensiya, konseptual asos, geografik ko‘nikmalar, strategiya, individual yondashuv, metodologiya, pedagogik ko‘nikma, kognitiv o‘lchov, metakognitiv o‘lchov, motivatsion va irodaviy o‘lchov.

Ключевые слова: компетенция, концептуальная основа, географические навыки, стратегия, индивидуальный подход, методология, педагогические навыки, когнитивное измерение, метакогнитивное измерение, мотивационно-волевое измерение.

Key words: competence, conceptual framework, geographical skills, strategy, individual approach, methodology, pedagogical skills, cognitive dimension, metacognitive dimension, motivational and volitional dimension.

Kirish. Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta‘lim standartlarini yo‘lga qo‘yilishi ularning zimmasiga yana bir qator muhim vazifalarni yuklamoqda Ma‘lumki, pedagogik kompetensiyani yaratish bu bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining yangi bilimlarni o‘zlashtirishida, hozirgi davr talablarini chuqur anglashida, yangi ma‘lumotlarni izlab topishida, ularni ustida qayta ishlashida hamda o‘z amaliy faoliyatida to‘plagan bilimlarini samarali qo‘llay olishidir.[1]. Buning natijasida esa o‘qituvchi bilimlarini hozirgi zamon bilan hamnafas muntazam tarzda yangilab, boyitib borishi dolzarb masala ekanligi yaqqol sezildi.

Geografiya fani orqali ham o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish tamoyillari dunyo, undagi odamlar va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash mumkin. Bu borada, samarali ta‘lim natijalarini ta‘minlash uchun malakali bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini tayyorlash juda muhim hisoblanadi. Umuman olganda, geografiya ta‘limida kompetensiyani rivojlantirish geografik tushunchalar, samarali o‘qitish strategiyalari, geografik ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, global xabardorlik kabi yo‘nalishlarni



har tomonlama tushunishni o'z ichiga oladi. Aynan bu yo'nalishlar talabalarni murakkab geografik muammolarni tushunishi uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun geografiya ta'limining mazmunli va qiziqarli bo'lishida hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ko'rgazmali qurollar, xususan, xaritalarning o'rni va ahamiyati katta bo'lib, darslarda yuqori samaradorlikka erishish uchun muntazam ravishda turli mavzulardagi va masshtabdagi o'quv xaritalari, atlaslar, globuslar, yozuvsiz xaritalar bilan ishlashda unumli foydalanish talab etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning psixologik holati, xususiyatlari muhim o'rin tutadi. O'quvchi shaxsining psixologik holatlari geografiya o'qitishning yana bir o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. [7]. O'quvchilarda mazkur ko'nikmalarni shakllantirish borasida o'tilgan har bir mavzu mazmunini yoritishda ularning kundalik turmushda qo'llanilish doirasi, insoniyat va umumbashariyatning buguni hamda kelajagi bilan bog'liq jihatlarni o'quvchilar ongiga singdirib borish orqali amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilarga geografiya fanining hayotimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy tomondan zarurat ekanligini anglatish muhim hisoblanadi. O'quvchilarning fanni o'zlashtirishdagi xususiy kompetensiyalarini birgalikda shakllantirish uchun o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjudki, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchilar bu jihatlarni e'tiborga olishi zarur bo'ladi. Ya'ni, ta'lim jarayonini tashkillashtirayotgan o'qituvchi uchun ta'lim oluvchining psixologik rivojlanish jihatini bilish muhim sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishda A. Shernaevning "Geografiya darslarini o'qitishda atlas va xaritalar bilan ishlash texnologiyalari" nomli maqolasida o'quvchilarning ijodiy yondashuvining asoslari yoritilgan. Bu borada Geografiya ta'limining mazmunli va qiziqarli olib borilishida hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda turli mavzulardagi va masshtabdagi o'quv xaritalari, atlaslar, globuslar, yozuvsiz xaritalar bilan ishlash ijobiy samara berashi asoslangan. Vasilyeva Irina Vasilyevnaning aynan maktab ta'limi jarayonidagi "Проектная и исследовательская деятельность учащихся как средство реализации компетентного подхода при обучении физике в основной школе" nomli avtoreferatida o'quvchilarning loyiha va tadqiqot faoliyati bilan ishlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. S.A.Haydarovanning "O'quvchilarning geografik kompetensiyalarini rivojlantirishga pedagogik-psixologik yondashuv" hamda F.B.Xudayqulovanning "Muammo va yechimlar bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari". kabi ilmiy qarashlari hozirgi zamon talabiga xos psixologik



yondashuvlar, muammolarning yechimlariga doir bir qator ilmiy ishlarning amalga oshirishdagi vazifalari o‘rin egallagan.

Natija va muhokamalar. Geografiya faniga oid kompetensiya maktab o‘quv jarayonida o‘quvchilarda shakllantiriladigan ko‘nikma va malakaning qay darajada tarkib topishiga ham bog‘liq bo‘lib, quyidagi hollarda amalga oshirilishini ko‘rib chiqishimiz mumkin, masalan:

- geografik ko‘nikmalar murakkab jarayon ekanligini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish zarur;
- o‘quv jarayonlarining ketma-ketlikda tizimli tashkil etilishida to‘liq mazmunlilik, asoslilik va maqsadga muvofiqligiga erishish uchun o‘quvchilarda alohida individual yo‘nalganlikni qaror toptirish kerak;
- o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirishda psixologik, pedagogik hamda ularning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olish zarur. Su bilan birga geografiya ta‘limida kompetensiyani rivojlantirish bir nechta asosiy jihatlarni qamrab oladi. Xususan, geografiya ta‘limida kompetensiya asosiy geografik tushunchalarni, jumladan
 - fizik geografiya ya‘ni yer shakllari, iqlim, ekotizimlar va boshqalar,
 - inson geografiyasi ya‘ni aholi, madaniyat, iqtisodiy tizimlar va boshqalar
 - fazoviy tahlilni ya‘ni xaritalar, GIS va boshqalarni o‘z ichiga oladi[8].

O‘qituvchilar ushbu tushunchalarni samarali o‘rgatish va o‘quvchilarga geografiya yo‘nalishida mustahkam poydevor yaratish borasida chuqur mazmunli bilimlarga ega bo‘lishlarini taqozo etadi. Bu borada pedagogik ko‘nikmalarni shakllanirish orqali geografiya ta‘limida samarali o‘qitishda faol o‘rganish, texnologiya integratsiyasi kabi tegishli ta‘lim strategiyalarni qo‘llashni ilgari surish muhimligini ko‘rsatadi[2]. Amaliy hamda tajribalar orqali o‘qituvchilar mazmunli o‘rganish tajribasini osonlashtirish, o‘quvchilarning izlanishlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘rganish imkoniyatlarini yaratish uchun pedagogik mahoratga ega bo‘lish zarurligini belgilab beradi.

Umuman olganda, geografiya ta‘limida kompetensiyani rivojlantirish geografik tushunchalarning samarali o‘qitish strategiyalari, geografik ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, global xabardorlik va axloqiy tarbiya nuqtai nazarlarni har tomonlama tushunishni o‘z ichiga oladi. Kompetensiyani rivojlantirishning konseptual asoslari muayyan vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, bilim, qobiliyat, munosabat va xatti-harakatlarni egallash va takomillashtirish jarayonini anglatadi. U kompetensiyalarni tushunish va rivojlantirishni boshqaradigan nazariy asoslarga tayanadi. Ana shunday tuzilmalardan biri Spenser(1993) tomonidan taklif qilingan bo‘lib bu kompetensiyani rivojlantirishning to‘rt komponentli modeli ekanligini ko‘rsatadi.



Ushbu modelga ko‘ra, kompetensiyani rivojlantirishning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta komponentdan iborat ekanligi asoslangan, bular:

- **bilim** - kompetensiyani rivojlantirish bilimlarni egallashdan boshlanadi, bu sohani nazariy tushunishni anglatadi. Geografiya ta‘limida ushbu geografik tushunchalar nazariyalar va tamoyillar haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi;
- **ko‘nikmalar** - ko‘nikmalar amaliy vaziyatlarda bilimlarni samarali qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Geografiya ta‘limida bu xaritalarni o‘qish, ma‘lumotlarni tahlil qilish, fazoviy fikrlash va tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar o‘quvchilarga geografik ma‘lumotlarni samarali tahlil qilish va sharhlash imkonini beradi;
- **shaxsiy kompetensiya** - shaxsiy kompetensiyani shaxsning o‘z qobiliyatlari, kuchli tomonlari va cheklovlarini anglashi hamda idrok etishini anglatadi. Bu o‘z bilim va ko‘nikmalariga ishonchni ta‘minlaydi. Geografiya ta‘limi kontekstida ijobiy o‘zini o‘zi anglash geografiya o‘quvchisi yoki o‘qituvchisi sifatida malaka va ishonch hissini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi;
- **motivlar** - motivlar shaxsning malakasini oshirish hamda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llashga bo‘lgan ichki harakat va motivatsiyasini anglatadi. Geografiya ta‘limida bu geografik mavzularga qiziqish hamda qiziqishni kuchaytirish, ularda dunyoni o‘rganish uchun ichki motivatsiyani rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.[6].

Ushbu to‘rtta komponent bir-biriga bog‘langan tarzda bir-biriga ta‘sir qiladi. Masalan, insonlar bilimlarini rivojlantirishi bilan ularning malakalari va o‘z-o‘zini anglashlari ham yaxshilanishi mumkin, bu esa, o‘z navbatida, geografiya ta‘limida o‘qishni davom ettirish va o‘z kompetensiyalarini rivojlantirish, motivatsiyasini yanada oshirishi mumkin. Ushbu model kompetensiyalarni rivojlantirishning ko‘p qirrali mohiyatini tushunish uchun yaxlit asosni taqdim etadi.

Yana bir keng tarqalgan nazariy asos bu Weinert (2001) tomonidan taklif qilingan Kompetenzbegriff (kompetentlik tushunchasi) hisoblanadi. Ushbu asosga ko‘ra, kompetensiyani rivojlantirish uch o‘lchovning o‘zaro ta‘sirini o‘z ichiga oladi:

- **kognitiv o‘lchov** - Bu muammolarni hal qilish va vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va kognitiv qobiliyatlarni anglatadi. Geografiya ta‘limida kognitiv o‘lchov geografik tushunchalar va nazariyalarni tushunish, fazoviy ma‘lumotlarni tahlil qilish va ma‘lumotni tanqidiy baholashni o‘z ichiga oladi;
- **metakognitiv o‘lchov** - Bu o‘lchov o‘z fikrlash jarayonlari haqida fikr yuritish, o‘rganishni kuzatish va tartibga solish, fikr-mulohazalar asosida strategiyalarni moslashtirish qobiliyatini anglatadi. Geografiya ta‘limida



metakognitiv qobiliyatlar o'z-o'zini tartibga solish, rejalashtirish va o'rganish hamda fikrlash jarayonlarini aks ettirishni o'z ichiga oladi;

- **motivatsion va irodaviy o'lchov** - Bu o'lchov shaxsning motivatsiyasi, qiziqishi, qat'iyatliligi va o'zini o'zi nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Geografiya ta'limida u geografik mavzularga chinakam qiziqishni rivojlantirish, maqsadlarni belgilash, vaqtdan samarali foydalanish va qiyinchiliklarga qarshi turishni qamrab oladi[3].


Ushbu o'lchovlar kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o'zaro hamda bir-biriga ta'sir qiladi. Kognitiv o'lchov bilim va ko'nikmalarning asosini ta'minlaydi, metakognitiv o'lchov esa samarali o'rganish va muammolarni hal qilish strategiyalarini qo'llab-quvvatlab qat'iyatni kuchaytiradi. Bu nazariy asoslar kompetensiyalarni rivojlantirishni tushunish uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Geografiya ta'limida kompetensiyalarni ishlab chiqish va baholash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Geografiya ta'limida kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligini, talabalarning geografiya faniga oid bilim va ko'nikmalarini amalga oshirishda, ularning muammolarini yechish, jamiyatning turli sohalaridagi global muammolarni tushunishda ularga yordam beradi. Shu orqali umumiy qarashlarni yuzaga keltiradi. Buning dolzarbligini shundaki, o'quvchilarni geografiya fani orqali zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga, ma'lumotlar bazalarini va geografik tahlil tizimlarini ishlab chiqishga qiziqishini oshirishning muhimligidir. O'quvchilarni jahon geografiasiga qiziqishini oshirish barobarida jamiyatning turli sohalaridagi kasb egalari bilan hamkorlik qilishga qiziqishni oshirish ijobiy samara beradi. Bu kompetensiyalar o'quvchining ixtiyoriy o'qishni davom ettirishi, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini oshirishi natijasida jahon geografiasiga qiziqishini ortib borishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnida bu bilimlar esa o'quvchilarni dunyodagi global muammolar, ularning o'ziga xos sohalaridagi kompetensiyalarini tushuna bilish qobiliyatini ta'minlashga yordam beradi. Aynan geografiya ta'limida kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligini o'quvchilarni geografianing turli jabhalarida mustaqil izlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qamrab oladi.

Talabalarga motivatsion yondashuv orqali kompetensiyani rivojlantirishdagi muammolar va imkoniyatlarni ongli tushunib yetish imkonini beradi. Bundan tashqari, bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir. Kompetensiya – o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan,



aynan shu sharoitga mos metodlardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi zamonaviy talablarga javob beradigan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi[8]. Muammolarni yechishda insonlar shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini faollashtirish borasidagi ta'lim madaniyatini targ'ib qilishdan iborat. Bunga qulay va moslashuvchan o'quv platformalari, murabbiylik dasturlari va norasmiy ta'lim tajribasini tan olish orqali yordam berish mumkin. Ma'lumotlarning mavjudligi va ahamiyati ortib borayotgani talabalardan ilmiy ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va sharhlashda malakali bo'lishni talab qiladi. Ba'zida tanqidiy fikrlash ham murakkab muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu sohalarda kompetensiyalarni rivojlantirish ma'lumotni tahlil qilish, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Geografiya o'qituvchilari malakasini oshirishni amalga oshirish strategiyalari ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi hamda kompetensiyani rivojlantirishda muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. O'quv jarayonini dala hamda pedagogik amaliyot faoliyati bilan birlashtirish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar o'rganish jarayonida o'zlari tadqiqotlarni kuzatish, axborotlarni topish, ma'lumotlarni tahlil qilish va e'tibor bilan muammolarni o'rganishi kerak. Bu jarayon geografiya fani o'qituvchilari orasida tajribali o'qituvchilar bilan ta'lim sifatini yaxshilanishiga, sohaning yangiliklar yaratish va eng yaxshi o'qitish usullarini talab qilish imkonini beradi.

Pedagogik amaliyotning samaradorligi quyidagilarga bog'liq



Kompetensiyaga asoslangan ta'limning afzalliklari bugungi dunyoda so'nggi o'n yil ichida kompetensiyaga asoslangan ta'limni qabul qilish harakati ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan Qo'shma Shtatlar, Braziliya va ko'plab Yevropa mamlakatlarida mashhur bo'ldi[4]. Chunki ko'proq o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim rahbarlari muvaffaqiyat uchun kuchli ta'limga tayyorgarlik zarurligini tan olishmoqda. Maktablarga bo'lajak geografiya o'qituvchilarining o'z faoliyatining asoslarini yaratishga yordam berish uchun kompetensiyaga asoslangan ta'limning afzalliklarini har tomonlama ongli tushunib yetmog'i zarurligi bugungi davr talabidir. Chunki maktablar o'rganish tajribasining keng doirasini taklif qiladi, kompetensiyaga asoslangan ta'lim ana shu ta'lim borasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi sababli asosiy tamoyil hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining noyob iste'dodlari asosida o'qitadi, bu har bir o'quvchini



muvaffaqiyatga erishish uchun keng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bo'lajak o'qituvchilar birinchi marta kompetensiyaga asoslangan ta'lim sinfiga kirganlarida, ular uchta narsani bilishlari kerak:

- o'quvchilar nimani o'rganishlari kerak;
- mahorat qanday aniqlanadi;
- o'quvchilar qanday baholanadi

Bo'lajak o'qituvchilar oxir-oqibat nimaga erishmoqchi ekanliklarini bilsalar, o'z ta'limlari uchun ko'proq mas'uliyat oladilar. Misol uchun, bo'lajak geografiya o'qituvchilari kichik bog'ni loyihalash bilan bog'liq loyihani bajarish orqali matematik bilimlarini ishlatishi kerakligini tushunadi. U o'zining matematik ko'nikmalarini maydonning o'lchamini va shu muhitda o'sadigan o'simliklar sonini hisoblash uchun ishlatishi kerak. Agar o'qituvchi sinfda muvaffaqiyatga erishish uchun nimaga erishish kerakligini aniq tushunsa, u o'z ta'limini nazorat qilishni ko'proq his qiladi. Keyin u loyihada muammoga duch kelganida yoki uni to'g'ri bajarish uchun bilimga ega bo'lmasa, u o'zi yordamga muhtojligini tushunadi. Maqsadlari va natijalari aniq bo'lgan o'qituvchi o'z bilim doirasini shu damda va kelajakda yanada kuchliroq o'rganishga yondashadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, kompetensiyaga asoslangan ta'lim turli kamchiliklarini bartaraf etish va ularning kuchli tomonlarini mustahkamlashga kirishar ekan, har bir bo'lajak o'qituvchi bilim yo'li bilan o'zlashtirish sari olg'a boradi. Ushbu individuallashtirilgan o'quv tajribasi har bir talaba muvaffaqiyatga erishish uchun keng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda kompetensiyaga yondashilgan ta'limni qabul qilish harakati ko'pgina davlat maktablarida asos solinib, ijobiy natijasi o'rganilmoqda. Bunga misol tariqasida Chikago Lotin maktabini keltiramiz. Lotin tilida kompetensiyaga asoslangan ta'lim chet tili darslarida til qobiliyatlari eng yaqin bo'lgan o'quvchilarni guruhlash uchun qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, turli yoshdagi o'quvchilar bir sinfda bo'lishlari mumkin, ular yil yakunida avtomatik ravishda, qobiliyatlariga xos tarzda aniqlanadi.

“Kompetentlik ta'limi” nima?, bu ta'lim tizimi dunyo miqyosida umumlashtirilgan tarzda quyidagicha fikrlar bilan ifodalanmoqda:

Talabalar o'z mahoratlari asosida bilimlarini rivojlantirish. Bilimlarni o'zlashtirish borasida talabalar uchun qiyinroq bo'lgan sohalarda ishlashga ko'proq vaqt sarflash imkonini beradi. Ular hatto sinf darajasidan oshib ketishi mumkin, ammo murakkablik tug'ilganda ko'proq vaqt talab etiladi. O'zlashtirish, shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarga eng ko'p yordam kerak bo'lgan joyda yordam berishga imkon beradi va shu bilan birga keyingi bosqichga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoitni ta'minlaydi.

Kompetensiyalar o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytiradigan, aniq o'lchanadigan, o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan o'quv maqsadlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim maqsadlarida oshkoralik bilan, talabalar o'z bilim darajalariga ko'proq egalik qiladilar va qanday o'rganishlari va o'qishlarini qanday namoyish etishlarini tanlash imkoniyatini oshiradilar. Bu jarayonda o'qituvchilar ham talabalar bilan ko'proq hamkorlik qiladilar, chunki ular o'quvchilar bilishini va nimaga qodir ekanini, ularning maqsadlari asosida aniqlab dan berishga ko'maklashadilar.

Baholash mazmunli va talabalar uchun ijobiy o'rganish tajribasi. O'qituvchilar o'quvchilarda noto'g'ri tushunchalardan xalos qilish borasida yaxshiroq tushinishlari va o'quvchilar teran fikr-mulohaza qilishlari uchun adolatli baholashga urg'u beriladi.

Talabalar keng ko'lamli ko'nikmalar va qobiliyatlarni rivojlantiradilar va qo'llaydilar. Talabalar tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini faol ravishda o'rganadilar va qo'llaydilar.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim o'quvchilarga mavzuni egallashga va o'zlashtirishlarini ko'rsatishga yordam beradi, adolat va inklyuziyani targ'ib qiladi va o'quvchilarni sinfdan tashqari hayotga tayyorlaydi[5].

Xulosa. Kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy maqsadi bu - har bir o'quvchiga zaruriy ko'nikmalarni egallash va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun keng imkoniyat berishdir. Kompetensiyaga asoslangan ta'limda, asosiy e'tibor har bir talabaning fan bo'yicha qanchalik malakali ekanligiga qaratiladi. Demak, o'quvchilar o'z mahoratini ko'rsata olgandagina bilimlarini rivojlantirishi mumkin. O'qituvchilar esa har bir o'quvchining o'z iqtidorini namoyon qilishi uchun avval to'liq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim va an'anaviy ta'lim o'rtasidagi uchta asosiy farqni ko'rib chiqaylik. Bular ta'limning tuzilishi, natijalari hamda baholashdir. An'anaviy ta'limda har bir o'quvchi uchun o'quv yil oldindan belgilanadi. Sinfdagi barcha o'quvchilar bir xil yoshda bo'lishi kerak. Kompetensiyaga asoslangan ta'limda talabalarga o'quv jarayonida moslashuvchan bo'ladi. O'quvchilarga mavzu doirasida o'ziga xos ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan yordam ko'rsatiladi. O'quvchilar nimaga qodir ekaniga qarab harakatga yo'naltiriladi. An'anaviy ta'limga ko'ra, o'quv natijalari testlardan o'tish maqsadida yodlash va tushunishga qaratilgan. Kompetensiyaga asoslangan ta'limda esa asosiy e'tibor qo'llash orqali natija beradigan chuqur tushunishga qaratiladi. Bu shuni anglatadiki, ta'lim natijalari amalda isbotlanadi va o'quvchilarga zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga aslida psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Kompetentlik bo'lajak geografiya o'qituvchilarining



bilimlarini rivojlantirish nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, keyingi yillarda barcha fanlar qatori geografiya darslarida ham pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘qituvchi avvalo o‘z ustida muntazam ishlashi va o‘z-o‘zini bilimlarini rivojlantirishi muhim xususiyat kasb etmoqda[9]. Bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari, o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. Albatta, geografiya ta’limini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan muhim vazifalarga yondashgan holda, bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini dars mashg‘ulotlari orqali talabalarni yo‘naltirish ham muhim masala hisoblanmoqda.

Adabiyotlar:

1. Shernayev A.O. “Geografiya darslarini o‘qitishda atlas va xaritalar bilan ishlash texnologiyalari”. Academic research in educational sciences. 2020. №4
2. Xudayqulova F.B. “Muammo va yechimlar bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”. International Conference. 1671. Pedagogik ta’lim klasteri.
3. Weinert F.E. Concept of competence: A conceptual clarification. In D. S. Rychen
4. Васильева И.В. “Проектная и исследовательская деятельность учащихся как средство реализации компетентностного подхода при обучении физике в основной школе” Автореферат. к.п.н., Москва, 2008. “Science and Education” Scientific Journal. May 2021.
5. Salganik L.H. (Eds.), Defining and selecting key competencies (2001). (pp. 45–65). Hogrefe & Huber Publishers.
6. Лайл Спенсер- М. мл. и Сайн М. Спенсер. Компетенции на работе. Пер. с англ. М: HIPPO, 2005. - 384 с.
7. Haydarova S.A. “O‘quvchilarning geografik kompetensiyalarini rivojlantirishga pedagogik-psixologik yondoshuv”. “Journal of Natural Sciences” No3 2021 y. 70-b
8. Haydarova S.A. “Geografiya fani o‘qituvchisi kompetentligi va uning zamonaviy talablar”. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. Jild: 02. Nashr: 02. |33-b. Yanvar 2021.
9. Mahmudova Ch.I. “Talabalarda geografik obyektlar va joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llash olish kompetensiyasini rivojlantirishda ajdodlar ilmiy merosidan foydalanishning zarurati”. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali. №7/2023. Iyul.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishning tamoyillariga tayangan holda, geografiya ta’limi bo‘yicha kompetensiyani rivojlantirishning konseptual asoslari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на основе принципов развития компетентностей будущих учителей географии выделены концептуальные основы развития компетентностей в географическом образовании.

SUMMARY

In this article, based on the principles of competence development of future geography teachers, the conceptual basis of competence development in geography education is highlighted.